Zaripova Shukurjon Otajon qizi (UrIU "O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrasi stajyor o'qituvchisi, UrDU 2-bosqich doktoranti; shukurjonzaripova2@gmail.com)

ABDUQAYUM YO'LDOSHEVNING "KASOFAT RAQAMLAR" ROMANIDA FOLKLORIZM TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abduqayum Yo'ldoshevning "Kasofat raqamlar" romanida folklorizm hodisasi tahlil qilinadi. Asarda raqamlar bilan bog'liq mifologik qarashlar, xalqona tasavvurlar va irim sirimlar badiiy talqini orqali ochib beriladi. Muallif tomonidan qo'llanilgan folklor unsurlarining obraz yaratishdagi, sujet rivojidagi hamda asarning umumiy g'oyaviy-badiiy tizimidagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, roman matnida raqamlarning ramziy ma'nolari va ularning zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashuvi masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida folklorizmning asar badiiyatini boyituvchi muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *folklorizm, qarg'ish, ramziylik, raqamlar talqini, badiiy asar, obraz, syujet, xalq og'zaki ijodi, olqish, zamonaviy nasr.*

Зарипова Шукуржон Отаджон кизи (стажер-преподаватель кафедры «Узбекская и зарубежная филология» Уральского государственного университета, Аспирант 2-го года обучения Уральского государственного университета; shukurjonzaripova2@gmail.com)

МИФ ЗА ЧИСЛАМИ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОЛЬКЛОРА В «КАСОФАТСКОЙ НУМЕРОЛОГИИ»

Аннотация. *В данной статье анализируется феномен фольклора в романе Абдукаюма Юлдошева «Касофатская нумерология». Произведение раскрывает мифологические представления, народные фантазии и тайны, связанные с числами, посредством художественной интерпретации. Изучается роль фольклорных элементов, используемых автором при создании образа, развитии сюжета и общей идеологической и художественной системы произведения. Также анализируются символические значения чисел в тексте романа и их соответствие современному мышлению. В результате исследования установлено, что фольклор является важным фактором, обогащающим художественное качество произведения.*

Ключевые слова: *фольклор, миф, символизм, толкование чисел, произведение искусства, образ, сюжет, народная устная литература, тайна, современная проза.*

Zaripova Shukurjon Otajon qizi (Trainee-teacher of the Department of "Uzbek and Foreign Philology" of the Ural State University, 2nd year doctoral student of the Ural State University; shukurjonzaripova2@gmail.com)

THE MYTH BEHIND THE NUMBERS: INTERPRETATION OF FOLKLORISM IN "KASOFAT NUMEROLOGY"

Annotation. *This article analyzes the phenomenon of folklorism in Abdukayum Yuldoshev's novel "Kasofat numerology". The work reveals mythological views, folk imaginations and secrets related to numbers through artistic interpretation. The role of folklore elements used by the author in creating the image, plot development and the general ideological and artistic system of the work is studied. Also, the symbolic meanings of numbers in the text of the novel and their compatibility with modern thinking are analyzed. As a result of the research, it is substantiated that folklorism is an important factor enriching the artistic quality of the work.*

Keywords: *folklore, myth, symbolism, interpretation of numbers, work of art, image, plot, folk oral literature, mystery, modern prose.*

Kirish (Introduction). Badiiy adabiyotda folklor unsurlarining qo'llanilishi milliy tafakkur, tarixiy xotira va xalqona dunyoqarashning ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy nasrda folklorizm an'anaviy shaklda emas, balki yangicha talqin va badiiy izlanishlar orqali namoyon bo'layotgani kuzatiladi. Mazkur maqolada "Kasofat raqamlar" romanidagi folklorizm hodisasi, xususan, raqamlar bilan bog'liq mifologik qatlam va uning badiiy ifodadagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, folklor unsurlarining asar sujeti, obrazlar tizimi hamda umumiy g'oyaviy yo'nalish bilan uzviy aloqasi yoritiladi. Ushbu masalalarni o'rganish orqali zamonaviy o'zbek nasrida folklorizmning yangi talqinlari yuzaga chiqayotganini ko'rsatish maqsad qilib olinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'tgan asrning 50–60-yillaridan e'tiboran, yozma adabiyotning folklordan foydalanishi, ta'sirlanishi "folklorizm" degan nazariy termin bilan atala boshlangan. O'zbek adabiyotshunosligida yozma adabiyotdagi folklorizmning badiiy-poetik xususiyatlari, tasnifi, tipologiyasi masalalari ulkan adabiyotshunos olim B.Sarimsoqovning qator ilmiy-nazariy maqolalarida yoritilgan [1;34–35-b.].

Olim folklorizmlarni poetik tabiyatiga ko‘ra, oddiy va murakkab turlarga ajratdi hamda murakkab folklorizmlarni analitek, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi ko‘rinishlarga bo‘ladi. Xususan, olimning bu sohadagi izlanishlarini shogirdi I.Yormatov davom ettirib, folklorizmlarning tipologik xususiyatlari va stilizatsiya xarakteridagi ko‘rinishlarini izohlaydi [2;55–58-b.]. L.Sharipova esa yozma adabiyotda “folklor an’analari” emas, aynan folklorizmlar mavjud bo‘lishini, ya’ni folklordan yozma adabiyotga ko‘chgan janr, motiv,obraz, ritm va ifoda shakllari adabiy matn tarkibidagi qayta estetiklashgan holda yashashini ta’kidlaydi. U stilizatsion folkorizmlarni janr, motiv, obraz va ritm stilizatsiyasiga ajratadi [3;18-b.]

Abduqayum Yo‘ldoshev ijodi bo‘yicha ilmiy kuzatishlarda ham aynan shu jihat alohida ko‘zga tashlanadi. Adib hikoyalarida oddiy folklorizm, qayta ishlangan oddiy folklorizm, analitik folklorizm, murakkab folklorizm, motiv, obraz, janr va ritm stilizatsiyasi, shuningdek, ijtimoiy-etnografik folklorizmlar atroflicha ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotlar silsilasi shuni ko‘rsatadiki, adib nasrini folklorizmlar masalasidan chetda turib o‘qish mumkin emas. Mazkur maqolaning maqsadi Abduqayum Yo‘ldoshev ijodida folklorizmlarning faqat mavjudligini qayd etish emas, balki ularning badiiy vazifasini ko‘rsatishdir. Chunki folklorizmni oddiy sitata yoki bezak deb tushunish katta xato bo‘ladi. Haqiqiy folklorizm yozuvchi tafakkuri orqali qayta ishlanib, badiiy matnning ichki qonuniyatiga singganida poetik hodisaga aylanadi. Abduqayum Yo‘ldoshevda folklorizm aynan mana shunday ichki, organik shaklda namoyon bo‘ladi. Uning nasrida xalqona hikoya qilish ritmi, maqol va matallar, duo va olqishlar, qahramon nutqining tabiiyligi, ertakona va afsonaviy motivlarning zamonaviy voqelikka moslab talqin qilinishi milliy ruhni chuqurlashtiradi, lekin matnni arxaiklashtirib qo‘ymaydi. Bu adib mahoratining eng nozik nuqtasidir.

“Kasofat raqamlar” bu oddiy adabiy asar emas, ogohlantiruvchi badiiy-falsafiy manifestdir. Abduqayum Yo‘ldoshev o‘quvchini zamonaviy raqamli dunyoda o‘zligini yo‘qotmaslikka, insoniy qadriyatlarni asrashga chaqiradi. Asarda “raqamlar” ramziy ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, ular zamonaviy ja-miyatda insoniyat hayotni boshqarayotgan, lekin asta-sekin insoniylikni so‘ndirayotgan kuch sifatida talqin etiladi. Ra-qamlar – bu texnologiya, sun’iy ong, foyda va moddiylikni ifodalaydi. Muallif ana shu “raqamlar dunyosi” da insoniy tuyg‘ular, halollik vijdon, mehr kabi qadriyatlarning qadrsizlanib borishini fosh etadi. Asarda istalgan turdagi raqamlarni noodatiy usulda oldindan ko‘ra oladigan Akbar ismli yosh yigitning g‘ayritabiiy bu qobiliyatini maktabdagi kimyo fani o‘qituvchisi Nazokat opa tomonidan favqulodda kashf etilishi bilan boshlanadi. Uning bu qobiliyatidan Nazokat opaning o‘zi ham, bir vaqtlar mashhur akrobat-sirkchi bo‘lgan, hozir esa ichkilikka ruju’ qo‘ygan ukasi Jonuzoq (Jon Zak) ham maqsadlari yovlida foydalanib ko‘rishadi. Tobora bu “noyob qobiliyat”dan o‘z oldiga qing‘ir yo‘llar bilan pul topishni maqsad qilgan qabih niyatli kimsalar ham xabar topishadi.

Muvaffaqiyat uchun alohida xususiyat kerakmi yo mehnatning o‘zi birlamchi vosita hisoblanadimi? Ya’ni favqulodda iste’dod baxt, rohat-farog‘atga to‘la hayot kaliti bo‘la oladimi? Umuman odam g‘ayritabiiy imkoniyatkaridan foydalanishi lozim: faqat o‘zi uchunmi boshqalar bilan birgalikdami? Ushbi romanda o‘zgacha xislatli yigitning dolg‘ali kechmishlari orqali shu tarzdagi murakkab savollarning javoblari izlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning zamonaviy yondashuvlari asosida tahlil olib borildi. Xususan, asarni o‘rganishda komplieks yondashuv tamoyiliga tayangan holda analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, biagrafik, structural tahlil kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida uchraydigan folklorizmlarning birinchi va eng ko‘p ko‘rinadigan qatlami oddiy folklorizmlardir. Bular, asosan, maqol, matal, xalqona ibora, idiomatik ifoda, duo, olqish va qarg‘ishlarning matnga tabiiy singdirilishi orqali yuzaga keladi. “Kasofat raqamlar” romanida *“bir tuki qilt etmay o‘tiraveradi..”, “enasi ko‘pning bolasi ko‘p deyishadi”, tilini tishlab qoldi”, “gadoning dushmani, gado bo‘ladi”, “tirnoqqa zor”, “tagini ho‘llab qo‘ygan boladay”, “qora kunlar”,“jinning bandisiga aylandi, qoldi”, “qisir sigir”,“qiyomat qoyim qo‘pdi”, yeyishga chidasang to‘y qil, o‘lishiga chidasang qo‘y qil, qarziga chidasang magazin qil-da”, “onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatish”, “holiga maymunlar yig‘lamoq”, “osmon qo‘lingizda bo‘lsa, tashlab yuboring”, “suvga olib borib, suvsiz qaytarmoq”* kabi folklorizmlar roman kontekstida kata mahorat bilan ishlatilib, ular yozuvchining niyatini, qahramon ruhiyatini, milliy koloritini maishiy hayotiy lavhalarni ochib berishga xizmat qiladi.

Adib ijodidagi ikkinchi muhim qatlam analitik folklorizmlardir. O‘zbek adabiyotshunosligida bu turga, odatda, duo, olqish, qarg‘ish, fotiha kabi xalq og‘zaki ijodining kichik, ammo semantik jihatdan juda quvvatli shakllari kiritiladi.

Asar matnida "– *Ur!-m deydi o'shqirib – qo'lingdan kelsa ur! San ham erkakmisan, hajiqiz!* [4;31-b.] so'kishi Jonuzoq nutqida uchraydi. U ichib olib, magazinchi Ergash akani quruq tuhmatga tortib tashlagan paytiaytilgan. Qarg'ishlar odatda, kishi qattiq ranjiganda, biron narsadan norozi bo'lib, isyonini ifodalash paytida, olqish-duolar esa otaxonlar, onaxonlar nutqida ishlatilsa, so'kishlar erkak repertuariga xos ijro jarayoni hisoblanadi. So'kishlar, asosan, kishining jahli chiqqanida aytiladi.Bundan tashqari romanda *"padaringa ming la'nat", "ablah, Rayim oqsoqol", "onamning arvohi ursin", "qismatiga la'natlar o'qimoq", "nokas! Xotin emas, yuho", "xumparlar"* kabi so'kish va qarg'ishlar mavjud.

Adibning mahorati shundaki, u folklorizmlarni sun'iy ravishda joylashtirmaydi. Folklorizmlar matnning ichki ehtiyojidan kelib chiqadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Abduqayum Yo'ldoshev ijodida folklorizmlar adib poetikasining markaziy unsurlaridan biridir. Ularni faqat xalq og'zaki ijodiga murojaat qilish deb emas, balki milliy tafakkur shakllarini zamonaviy nasr strukturasiga singdirish usuli deb tushunish kerak. "Kasofat raqamlar" romanida folklorizm hodisasi, xususan oddiy va murakkab folklor unsurlarining badiiy talqini tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, asarda folklorizmlar nafaqat bezak elementi sifatida, balki muhim g'oyaviy-badiiy vazifani bajaruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek nasrida folklorizm hodisasini yanada kengroq qamrovda o'rganish, turli yozuvchilar ijodi misolida qiyosiy tahlillar olib boorish maqsadga muvofiq.

Adabiyotshunosliktadqiqotlarida raqamlar ramziyligi va mifologik tafakkur masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Oliy ta'lim jarayonida zamonaviy asarlar misolida folklorizmni tahlil qilishga oid amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

[1]. Саримсоков Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1980, 34–35-betlar.

[2]. Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1982, 2-con, 55–58-betlar;

[3]. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар. Тошкент, "Фан", 2011, 18-bet..

[4]. Yo'ldoshev A. Kasofat raqamlar. "Yangi asr avlodi", 2023, 31-bet.

Atadjanova Sevara Bekmuratovna (Toshkent davlat Transport universiteti;
E-mail: sevaraatadjanova89@gmail.com)

O'ZBEK ADABIYOTIDA SAYOHATNOMA JANRINING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek adabiyotida sayohatnoma janrining shakllanishi va taraqqiyoti tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi mustamlakachilik siyosati, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari janrning badiiy-estetik qiyofasini belgilagan asosiy omillar sifatida yoritiladi. Muqimiy, Zavqiy, Hayratiy, Ahmad Donish, jadid adiblari hamda sovet va mustaqillik davri yozuvchilarining sayohat asarlari qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi. Tadqiqotda sayohatnoma o'zbek adabiyotida safar tasvirigina emas, balki milliy identitet, ijtimoiy tanqid va madaniy xotirani ifodalovchi muhim badiiy shakl ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *sayohatnoma, travelog, milliy identitet, tanqidiy realizm, ma'rifatparvarlik, jadid adabiyoti, badiiy publitsistika, mustamlaka davri, madaniy xotira, safar motivi, adabiy janr.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЖАНРА ПУТЕВЫХ ЗАМЕТОК В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В статье анализируются становление и развитие жанра путевых заметок в узбекской литературе в связи с историческими, общественно-политическими и литературными факторами. Колониальная политика, национальное пробуждение и просветительские идеи конца XIX – начала XX века рассматриваются как основные факторы, определившие художественно-эстетический облик жанра. На сравнительно-аналитической основе исследованы путевые произведения Мукими, Завки, Хайратий, Ахмада Дониша, представителей джадидской литературы, а также писателей советского периода и периода независимости. В исследовании обосновывается, что жанр путевых заметок в узбекской литературе является не только описанием путешествий, но и важной художественной формой выражения национальной идентичности, социальной критики и культурной памяти.*